

## G'AFUR G'ULOMNING "VAQT" SHE'RIDAGI BIZ BILMAGAN MA'NOLAR

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoiy odil sudlov fakulteti  
3-bosqich talabasi Eshboyev Sharafiddin*

**ANNOTATSIYA:** Bilamizki vaqt qanchalar beshafqat ya'ni u hech kimni kutib o'tirmaydi. Inson bu hayotda ko'p narsalarni sotib olishi mumkin, ammo vaqtni emas!. Ushbu maqolada G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ridagi tub ma'nolar tahlil qilinadi.

**KALIT SO'ZLAR:** Vaqt, fursat, muddat, soat, olam, zamon, lahza, qadr, hayot, umr.

**ANNOTATION:** We know that time is merciless, that is, it waits for no one. A person can buy many things in this life, but not time! This article analyzes the basic meanings of Gafur Ghulam's poem "Time".

**KEY WORDS:** Time, opportunity, period, hour, universe, time, moment, value, life, life.

**АННОТАЦИЯ:** Мы знаем, что время беспощадно, то есть оно никого не ждет. Человек в этой жизни может купить многое, но не время! В данной статье анализируются основные смыслы стихотворения Гафура Гулама «Время».

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Время, возможность, период, час, вселенная, время, момент, ценность, жизнь, жизнь

G'afur G'ulom nafaqat adib, balki akademik-shoir ham hisoblanib, uning ko'plab she'rlari o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. G'afur G'ulomning eng mashhur she'rlaridan bir bu "Vaqt" she'ridir. Ushbu she'rning yozilishi tarixiga keladigan bo'lsak, adibning o'zi aytganidek ushbu she'r yozilishiga jiyani mayor Hamidulla Husan o'g'li turtki bo'lgan. Ushbu she'r Birinchi Jahon urushida erishilgan g'alaba sharafiga yozilgan. Sababi ushbu she'r sarlavhasi tagiga "Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan" deb yozib qo'yilgan.

She'rning yozilish vaqtiga qarasa, ushbu she'r 1945-yilda yozilgan ya'ni aynan qatag'on yillari va hamma joyda so'z erkinligi cheklangan, butun O'zbekistonda markscha-lenincha tizim o'rnatilgan edi. Lekin shunga qaramasdan ulug' shoirimiz G'afur G'ulom o'zida "Vaqt" she'ridagi fikrlarini bayon eta olgan. Ushbu she'rni yozish adibdan judda katta kuch, quvvat, mahorat va jasurlik talab qilgan. Sababi yuqorida aytganimizdek ushbu davrda o'zbekona qarashlar va hattoki fikrlash taqiqlangan edi. Shunga qaramasdan G'afur G'ulom ushbu „siyosat“chizig'idan yurmaslik qanchalar xavfli ekanligini bilar, shu vaziyatda bo'lsada, o'zidagi yonib

turgan his tuyg'ularini yashirib, qog'ozga solmasdan tura olmadi. „Vaqt” deb atalmish o'sha mashhur she'rini, shu olovli muhit ichida turib bo'lsada yarata oldi. G'afur G'ulomning birgina bu asari emas, barcha ijod namunalari ushbu og'ir davrda yaratilgan. Buni o'zbek adabiyotining boshqa bir namoyandasi Omon Muxtor quyidagi so'zlarida ifodalagan: “Hali aytganimiz minbardagi shoir sifatida tanilgan G'afur aka aslida faylasuf, mutaffakir edi. Davr imkon bersa, u faqat falsafiy hamda umuminsoniy she'rlar yozar edi. Zotan, XX asr o'zbek adabiyoti she'riyatidagi G'afur akaga yetkazib, “eng kichik zarradan Yupitergacha...” deya keng nafasda so'zlagan boshqa shoir uchramaydi”. G'afur G'ulomning “Vaqt” she'ri quyidagicha boshlanadi:

***G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni***

***Kapalak umriga qiyos etgulik,***

***Ba'zida bir nafas olgulik muddat –***

***Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.***

Ushbu jumalarni yaxshilab tahlil qilsak, ushbu 4 qator jumalarda olam-olam ma'no mavjud. Ya'ni unda “G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni, Kapalak umriga qiyos etgulik” deb boshlangan. Kapalakni misol keltirganiga sabab, kapalaklarning ko'pchiligi bor-yo'g'i 1 kun hayot kechirishadi. Ya'ni uning umri judayam qisqa, lekin shunga qaramasdan, kapalaklar bir kunlik umr uchun oylar davomida pilla bo'ladi va undan keyin qurt shaklida hayot kechirishadi. Bu orqali shoir bitta g'uncha ochilguncha bitta kapalak umri o'tib ketishini o'z she'rida ifodalamoqda. “Bir nafas olgulik muddat ming yulduz so'nishi uchun yetgulik” -deya ta'rif beradi. Qadimdan osmonda bir yulduz uchsa, „Bir inson bu foniy dunyoni tark etib, boqiy dunyoga ketdi” -deb aytishar edi. Shoir bir lahzada, bir nafas olgan vaqtingda, ya'ni, shu kichik fursat ichida qanchadan qancha odam bu yorug' dunyoga o'zomonatini topshirishini ko'zda tutgan. Umrning tez oqib o'tuvchi daryo ekanligi, inson zotining hayotga kelishi va ko'z ochib yumguncha bu hayotni tark etishi ko'rsatilgan. Chuqur o'ylab tahlil qilsak, bu judayam hayratlanarli hodisalar.

Ushbu she'rning har bir jumlasini shunday tahlil qilib chiqish mumkin, lekin ulardagi to'liq ma'noni yoritish uchun oylar ketishi mumkin. Quyidagi jumalarga nazar tashlasak,

***Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,***

***Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;***

***Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam qimmat,***

***Bir lahza mazmuni bir butun bahor.***

Ya'ni bunda yarim soat ichida tug'ilib o'sib va yana yarim soat ichida butun hayotini yashab bo'ladiganlar bor demoqchi shoir

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoirning ushbu she'ri judayam kuchli ma'no-mazmunga ega. Ushbu she'rni tushunib va anglab o'qish kerak. Hammaga bu hayotda

har xil vaqt beriladi, ya'ni kimdir ko'proq hayot kechiradi, kimdir esa kamroq. Lekin vaqtni hamma xohlaganicha sarflaydi. Kimdir uni yaxshi ishlarga va yaxshi amallarga va yana kimdir uni behuda, maqsadsiz va yomon ishlarga sarflaydi. Biz vaqtdan iloji boricha unumli foydalanishimiz zarur. Sababi vaqtni na orqaga qaytarib boladi va na to'xtatib bo'ladi. Vaqt misli oqar daryo!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tanlangan asarlar.[Matn]: nazm va nasr.- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
2. G'afur G'ulom xotiralarda: to'plam/ Nashrga tayyorlovchlar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.
3. Manba <https://tafakkur.net/vaqt/gafur-gulom.uz>